



OGAHIY ASARLARI- TARIXIMIZ UCHUN MUHIM MANBA

Yakubova Sitora Sharifovna

Annotatsiya. Ushbu maqola o`zbek adabiyotining yetuk namoyandasi, Alisher Navoiydan keying o`rinda turuvchi buyuk shoir, tarjimon, tarixnavis olim Muhammad Erniyozbek o`g`li Ogahiyning hayot yo`li, u olib borgan tarixiy tadqiqotlar, yozgan tarixiy asarlari haqida ma`lumotlar berilgan. Fanlar Akademiyasida saqlanayotgan “Zubdat ut tavorix” asarining qo`lyozma nusxalari haqida ma`lumotlar mavjud.

Kirish so`zlar: Mirob, adabiy muhit, sahhof, qo`lyozma nusxalar, “Zubdat ut-tavorix”, nasta`liq xati.

O`zbek mumtoz adabiyotining betakror namoyandasi, buyuk shoir, tarjimon va tarixchi olim Muhammad Rizo Erniyozbiy o`g`li Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog`ida tavallud topgan. Yoshligidan otasi vafot etib, yana bir Xiva adabiy muhitining yetuk namoyandasi amakisi Munis qo`lida tarbiya topadi. Ogahiy yoshligidan ilmga chanqoq bo`lib, she`r yozish va adabiyotga juda qiziquvchan bo`lgan. Ammo Ogahiy yashagan davrda Xiva hayotida turli qiyinchiliklar mavjud bo`lgan. Ogahiy ilm-ma`rifatda to`liq kamolotga yetishmay turib, harbiy xizmatga ketgan va keyinchalik amakisi Munis vafot etgandan so`ng Xiva xonligida mirob lavozimida ish yurita boshlagan.

Ne tunlar munga xobi rohat edi

Ne kunlar zamoni farog`at edi.

Bu bayt orqali Ogahiy o`zi bajargan lavozimlar unga yoqmasligi, faqatgina majburiyat yuzasidan bajarayotgani adabiyot va she`riyat uning hayoti mazmuni ekanligini ta`kidlayapti. U yoshligidan shoirlar davrasida bo`lishni yoqtirar, vaqti bo`lishi bilan ularning suhbatidan bahramand bo`lar edi. Ogahiy doimo tarixga qiziqqan. U yashagan davrda Xivada 8ta xon hukmronlik qilgan. Xususan, Ogahiy o`z hayoti davomida Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Qutlug`murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Har bir hukmdor hukmronlik davriga bag`ishlab Ogahiy tarixiy asarlar yozgan. Bu asarlarda Xiva tarixida ro`y bergan o`zgarishlar, xonlar hukmronligi, ularning davlatni rivojlantirish



yo`lida qilgan ishlarini bayon qilgan. Xususan, Ogahiy 5ta tarixiy asarning muallifi hisoblanadi.

“Riyoziy ud-davla” (“Davlat ishlari”, 1825-1842)- Olloqulixon davriga bag`ishlangan.

“Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog`i”, 1846-1855)- Rahimqulixon davriga bag`ishlangan.

“Jom`e ul-voqeoti Sultoniy” (“Sultonlar voqealari to`plami, 1856-1865)- Muhammad Aminxon hukmronlik davriga bag`ishlab yozilgan.

“Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”, 1865-1872)- Sayid Muhammadxonning Xivani boshqargan davri tasvirlangan.

“Shohidi iqbol” (“Iqbol Shohidi”) – Muhammad Rahimxon soniy davriga bag`ishlanagan bo`lib, 1865-1873-yillar voqealarini yozish bilan uzilib qolgan.

Ogahiyning hijriy 1262-yili yozilgan “Zubdat ut-tavorix” nomli asari XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asar o`z davrida bir necha bor ko`chirib, nusxa olingan. Asarning dastlabki nusxasi qora siyohda nasta`liq xati bilan qo`qon qog`oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan ajratib ko`rsatilgan. Yozuvlarning har bir beti qizil rangli jadval ichiga olingan. Qo`lyozmadan nusxa olgan kotibning nomi ko`rsatilmagan. Asar hijriy 1273 (1856) yili ko`chirilgan.

Asarning boshi “Siposi vofir tuhfası ul sultoni azamat nishon ostonig`a nishondurkim” so`zlari bilan boshlanib, oxiri: “...Donish ahlining xotiri xotirlariga ma`lum bo`lsunkim, bu muxtasarning ta`lifi Rahmonqulixonning vafotidan 35 kun so`ng hijriy 1262 (1845-1846) yilda ilon yili rabial avval oyining to`rtida dushanba kuni ixtimom topdi” so`zlari bilan yakunlanadi.

Asarning 2-nusxasi 1289 (1880)yili kotib Mulla Muhammad Rizo Oxund ibn Muhammad Karim devon tomonidan ko`chirilgan. U navvotrang yupqa, shildiroq qo`qon qog`oziga qora siyohda nasta`liq xati bilan yozilgan. Sarlavhalar qizil siyohda ajratib ko`rsatilgan. Nusxa to`liq ko`chirilgan bo`lib, qo`lyozma yaxshi saqlangan. Nusxada muqova bo`lib u qalin karton ustidan qora charm bilan o`ralgan. Asarning 2-nusxasining boshi ham “Siposi vofir...” so`zlari bilan boshlanib oxiri “...Donish ahlining xotiri” sozlari bilan yakunlangan.

Asarning 3-nusxasi ham 1904-yil Muhammad Rizo Oxund ibn Muhammad Karim devon tomonidan ko`chirilgan bo`lib, asar to`liq va yaxshi saqlangan. Asar qora siyohda yaxshi nasta`liq xati bilan qo`qon qog`oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyohda alohida yozilgan. Muqova o`ymakor naqshlar bilan bezatilgan va har ikki tomonida sahhof belgisi bor.



Asarning 4-nusxasini ko`chirilgan vaqti va ko`chirgan shaxs haqida ma`lumotlar saqlanmagan. Nusxa qalin yevropa qog`oziga qora siyoh bilan yozilgan. Yirik nasta`liq xati bilan yozilgan bo`lib, qo`lyozma qizil charm muqovada bo`lgan.

Asarning 5-nusxasi 1910-yilda kotib Mullo Xudoybergan Xevaqqiy ibn Muhammadnazar hoji tomonidan ko`chirilgan. Nusxa mukammal darajada ko`chirilgan. O`rta Osiyoda tayyorlangan shildiroq qog`ozga nasta`liq xatida qora siyoh bilan bilan yozilgan. Yaxshi qalin muqovada. Hozirda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institute Sulaymonov fondida saqlanmoqda.

Ogahiy tarixiy asarlari Xiva xonligi tarixini o`rganishda asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Ogahiy va Munis tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar ahamiyati jihatidan juda qadrlidir. Mustaqillik yillarida Ogahiy ijodini to`liq o`rganish ishlari boshlanib ketdi. Ogahiy asarlarini o`rganishlar natijasida adibning asarlari 26ta bo`lib, hozirgi kunda 4 tasi topilganicha yo`q, uning asarlarining 22 tasidan 16 tasi saqlangan. Jumladan, 6 asari (11 nusxada) Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sank Peterburgda 10ta va Dushanba shahrida 8 ta asari mavjud. Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi, 72 ta qo`lyozma nusxada dunyo fondlarida saqlanmoqda. Bugungi kunda Ogahiy merosini o`rganish yoshlar ta`lim-tarbiyasi uchun juda mukammal manba bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Munirov. “Ogahiy, Munis va Bayoniylarning tarixiy asarlari”
- 2) T.Ne`matov. “Rossiya bilan Xiva o`rtasidagi munosabatlar”
- 3) Ogahiy “Zubdat ut-tavorix”